



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No1
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 109 sahifa.
2026-yil yanvar*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUROJAATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ.....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
Davronova G.O., Tursunova G.R.	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES	96
Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.	



KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI

Alimov Umid Xamid o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank ishi" fakulteti, BIA-51 guruhi talabasi

Ilmiy rahbar:

Umarov F. U.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti,
iqtisodiy fanlar falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan. Unda kreditlash jarayonida uchraydigan dolzarb masalalar, banklar va mijozlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, kredit siyosatini takomillashtirish va mijozlar ishonchini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi. Jismoniy shaxslarning moliyaviy holatini tahlil qilish, kreditlash samaradorligini oshirish, risklarni samarali boshqarish hamda kreditlar qaytish darajasini yaxshilash bilan bog'liq masalalar o'rganiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar asosida kreditlash amaliyotini samarali boshqarish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kreditlash amaliyoti, jismoniy shaxslar, moliyaviy tahlil, risklarni boshqarish, kredit siyosati, texnologiyalar, innovatsiyalar.

Abstract. This article focuses on improving retail lending practices in commercial banks. It analyzes key issues arising in the lending process, the nature of bank-client relationships, and provides practical recommendations for enhancing lending policies and strengthening customer confidence. The study examines the analysis of individuals' financial conditions, increasing lending efficiency, effective risk management, and improving loan repayment performance. In addition, it discusses approaches to efficiently managing lending practices through the application of modern technologies and innovative solutions.

Key words: commercial banks, lending practices, individuals, financial analysis, risk management, lending policy, technology, innovation.

Аннотация. Данная статья направлена на совершенствование практики кредитования физических лиц в коммерческих банках. В работе анализируются актуальные вопросы, возникающие в процессе кредитования, особенности взаимодействия банков и клиентов, а также предлагаются практические рекомендации по улучшению кредитной политики и повышению уровня доверия клиентов. Рассматриваются вопросы анализа финансового состояния физических лиц, повышения эффективности кредитования, эффективного управления рисками и улучшения показателей возвратности кредитов. Кроме того, обсуждаются методы управления кредитной практикой на основе применения современных технологий и инновационных решений.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитная практика, физические лица, финансовый анализ, управление рисками, кредитная политика, технологии, инновации.



KIRISH

Hech kimga sir emaski, tijorat banklarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aktiv operatsiyalarni amalga oshirish hamda qarz oluvchilarga shartnoma shartlari asosida kreditlar ajratish jarayoni bilan bog'liqdir. Mazkur jarayonda kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi va kredit portfelining sifati bank boshqaruvi diqqat markazida bo'lib, kredit portfeli sifati bankning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Banklar faoliyatining ushbu jihatlari iqtisodiy sikl bosqichlari va moliyaviy davrlardan qat'i nazar doimiy dolzarblikka ega bo'lib, bank rahbariyatini muammoli qarzar bilan ishlash, jumladan, muammoli kreditlar tasnifini aniqlashtirish, ularning muammolilik mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda samarali ish strategiyasini tanlash bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni izlashga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli¹ "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida moliya bozorida teng raqobat muhitini shakllantirish, kreditlashni faqat bozor tamoyillari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini kamaytirish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini oshirish, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishini ta'minlash hamda moliyaviy tavakkalchiliklarni baholashda ilg'or texnologik yechimlarni joriy etish bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar kredit mexanizmini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. O'z navbatida, kredit mexanizmini takomillashtirishning muhim sharti uning elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashdan iboratdir [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Kredit portfeli tushunchasi uning mohiyatiga berilgan turli ta'riflarda o'z ifodasini topgan. Xususan, amerikalik iqtisodchilar Chris J. Barlton va Diana Mac Naughton kredit portfelini kreditlarning ma'lum mezonlar asosida guruhlanishi sifatida ta'riflaydilar.

Shuningdek, N. Sokolinskaya kredit portfelini qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar yig'indisi sifatida izohlaydi. Mazkur yondashuvda asosiy e'tibor kreditlarning amal qilish muddatiga qaratilgan bo'lib, bu kredit portfelining iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib bermaydi [3]. Chunki kredit muddati kredit portfeli sifatini baholashda muhim omillardan biri bo'lsa-da, yagona mezon hisoblanmaydi.

Mashhur rus iqtisodchisi O. I. Lavrushin kredit portfelini muayyan bank tomonidan berilgan kreditlar yig'indisi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, kredit portfelini shakllantirish va tahlil qilish bankning strategiya va taktikasini aniq belgilash, shuningdek, mijozlarga kredit ajratish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

L. I. Abalkin, G. S. Panova va boshqa bir guruh iqtisodchilarning fikriga ko'ra, tijorat banklarining kredit portfeli kreditlarning sifati va tarkibi bo'yicha tasniflangan majmua hisoblanadi. Ushbu yondashuv kredit portfelining mohiyatini ochishda ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, kreditlarni sifat ko'rsatkichlari asosida toifalarga ajratish zarurligini ta'kidlaydi.

Xorijiy iqtisodchilarning yana bir guruhi — K. J. Barlton va D. Mac Naughton kredit portfelini muayyan xususiyatlarga ko'ra tasniflangan kreditlar majmui sifatida izohlaydi. Bu yondashuv kredit portfelining tuzilmasi va sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilishi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan ham mazkur masala yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Sh. Z. Abdullaeva banklarning kredit portfelini turli kredit risklari asosida muayyan mezonlar bo'yicha toifalangan kreditlar yig'indisi sifatida ta'riflaydi. Ushbu yondashuv kredit risklarini baholash va boshqarish masalalarining muhimligini asoslaydi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar tahlilidan kelib chiqib, kredit tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: bank krediti — bu moliyaviy muassasa (odatda bank) tomonidan jismoniy yoki yuridik shaxslarga ma'lum muddat va shartlar asosida qaytarish, foiz to'lash hamda maqsadlilik tamoyillari asosida beriladigan pul mablag'idir. Kredit operatsiyalari bank faoliyatida yetakchi o'rinni egallaganligi sababli kredit portfelini samarali tashkil etish banklarning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kredit operatsiyalarini tashkil etishdagi kamchiliklar bank daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, kreditlarning sifati va ularning qaytishini doimiy monitoring qilish tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishining muhim sharti hisoblanadi. Yuqorida o'rganilgan jihatlardan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy asosda tadqiq etish doimiy dolzarblilik kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari, shuningdek, olimlar va soha mutaxassislari bilan o'tkazilgan suhbatlar, ularning yozma va og'zaki tahliliy fikrlari, ekspert baholari, iqtisodiy jarayon va hodisalarni kuzatish hamda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Shuningdek, muallifning amaliy tajribalari, xulosalari va takliflari qiyosiy tahlil qilindi hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash, tizimli va mantiqiy tahlil qilish hamda ma'lumotlarni strukturalashtirishga qaratilgan yondashuvlar qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi yondashuvlardan kelib chiqib, jismoniy shaxslarni kreditlash tijorat banklari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu amaliyot banklarning daromad bazasini kengaytirishga xizmat qilishi bilan birga, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarni kreditlash jarayonida ayrim tashkiliy va risk bilan bog'liq masalalar yuzaga kelishi mumkin bo'lib, bu holat tijorat banklarida kreditlash amaliyotini doimiy takomillashtirib borishni taqozo etadi. Mazkur maqolada tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotini rivojlantirishga oid asosiy masalalar, mavjud jihatlar va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar yoritib beriladi.

Kreditlashning ahamiyati va mavjud jihatlar

Tijorat banklari iqtisodiyot moliyaviy tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ular jismoniy shaxslarga kreditlar ajratish orqali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi, bandlikni kengaytirishga hissa qo'shadi hamda davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarni kreditlash jarayonida banklar ma'lum risklar bilan to'qnash kelishi mumkin. Mijozlarning moliyaviy holati, qarzlarni qaytarish qobiliyati hamda umumiy iqtisodiy sharoitlar kreditlash jarayonining murakkabligini belgilab beradi.

Mazkur sharoitda banklar kredit ajratishda ehtiyotkorlik va puxta tahlil asosida yondashishi zarur. Kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bois, risklarni oldindan baholash va samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jismoniy shaxslarning kredit olish jarayonida zarur hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish bosqichlari ayrim hollarda murakkab bo'lishi mumkin. Bu holat kreditlash jarayonining cho'zilishiga va mijozlar qoniqish darajasining pasayishiga olib kelishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Kreditlash amaliyotini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari [7]

1. Mijozlarning moliyaviy holatini tahlil qilishni takomillashtirish.

Kredit ajratish jarayonining muhim bosqichlaridan biri mijozning moliyaviy holatini aniq va ishonchli baholashdan iborat. Banklar jismoniy shaxslarning daromadlari, xarajatlari, kredit tarixi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilishlari lozim. Ushbu jarayonda zamonaviy tahlil usullari, jumladan, mashinaviy o'rganish (machine learning) va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish kredit risklarini yanada aniq baholash imkonini beradi.

2. Kreditlash jarayonini soddalashtirish.

Kredit olish jarayonini soddalashtirish va tezlashtirish mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Onlayn ariza topshirish tizimlarini joriy etish, hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ma'lumotlarni tezkor va xavfsiz tekshiruvchi tizimlardan foydalanish kreditlash samaradorligini oshiradi.

3. Kredit risklarini samarali boshqarish.

Kreditlash jarayonida risklarni boshqarish asosiy vazifalardan biridir. Banklar mijozlarning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit tarixini baholash orqali risklarni minimallashtirishlari mumkin. Shuningdek, sug'urta va jamg'arma mexanizmlaridan foydalanish risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

4. Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish.

Banklar va mijozlar o'rtasidagi samarali muloqot kreditlash jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi. Kredit shartlari, foiz stavkalari va to'lov muddatlari bo'yicha aniq hamda tushunarli axborot berish bank obro'sini mustahkamlaydi va mijozlar ishonchini oshiradi.

5. Texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, blokcheyn, raqamli identifikatsiya tizimlari va onlayn kredit tahlillari kreditlash amaliyotining samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar xavfsizlikni kuchaytirish, ma'lumotlar aniqligini ta'minlash va operatsion xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.



6. Mijozlarga maslahat va yordam xizmatlarini kengaytirish.

Kredit olish jarayonida mijozlarga professional maslahatlar berish ularning moliyaviy qarorlarini ongli ravishda qabul qilishlariga yordam beradi. Bu esa kreditlarning qaytish darajasini oshirish va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bank aktiv operatsiyalarida kreditlar asosiy o'rinni egallab, bank daromadlarining salmoqli qismini tashkil etadi. Shu sababli kredit portfelining shakllanishi va boshqarilishi bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kredit portfelini samarali boshqarish uchun kreditlash jarayonini to'g'ri tashkil etish, amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilish hamda kredit portfelini muntazam tahlil qilib borish zarur. Kredit siyosati, kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi, garov ta'minotini baholash va vakolatlarni taqsimlash masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozim (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining o'zgarishi (mlrd so'm)

Ko'rsatkich nomi	01-01-2020	01-01-2021	01-01-2022	01-01-2023
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i	39 934	54 888	69 496	100 949
Ipoteka kreditlari	20 326	28 301	35 946	46 460
Iste'mol kreditlari	3 177	5 737	9 429	25 234
Mikroqarzlar	5 492	12 237	12 795	14 651
Tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar	6 467	8 613	11 326	14 567
Boshqa kreditlar	4 472	0	0	36
Jami kredit qo'yilmalari	211 581	276 975	326 386	390 049
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i, jami	39 934	54 888	69 496	100 949
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalardagi ulushi, %	19	20	21	26

Ma'lumki, 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining turlar bo'yicha o'zgarishi aks ettirilgan. Tahlil qilingan davrda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi 19 foizdan 26 foizgacha oshib, 2023-yil 1-yanvar holatiga 100 949 mlrd so'mni tashkil etgan. Kreditlar tarkibida ipoteka kreditlari asosiy ulushni egallab, jami kreditlarning 46 foizini tashkil etgan. Shuningdek, iste'mol kreditlari (25 foiz) va mikroqarzlar (15 foiz) so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligi kuzatiladi [9].

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar shartlarining qulaylashuvi va kredit olish jarayonidagi to'siqlarning kamayib borishi kreditlash hajmining oshishiga xizmat qilmoqda. Xususan, 2022-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i 100 949 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yildagi 69 496 mlrd so'mga nisbatan 1,45 barobar yoki 31 453 mlrd so'mga oshgani ushbu holatni tasdiqlaydi [9].

Raqamli transformatsiya natijasida banklarda xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish, bank tuzilmasini qayta ko'rib chiqish hamda kreditlash jarayonini bir bo'g'inli kreditlash tizimiga o'tkazish orqali quyidagi natijalarga erishildi:

- mijozlar bilan bevosita ishlovchi xodimlar ulushi 16–20 foizdan 50 foizgacha oshirildi (xalqaro amaliyotda ushbu ko'rsatkich 90 foizni tashkil etadi);
- bank binolarida mijozlarga xizmat ko'rsatishga ajratilgan maydon ulushi 30–40 foizdan 55 foizgacha kengaytirildi (xalqaro amaliyotda bu ko'rsatkich 80–90 foizni tashkil etadi);



➤ bir oyda bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha kreditlar soni 10 tadan 22 tagacha oshirildi (xalqaro amaliyotda ushbu ko'rsatkich 33 tani tashkil etadi);


➤ mijozlar uchun qulayliklarni kengaytirish natijasida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar ulushi 11 foizdan 50 foizgacha yetkazildi (xalqaro amaliyotda bu ko'rsatkich 85 foizni tashkil etadi) [3].

Iqtisodiyotning modernizatsiya qilinishi, texnik va texnologik yangilanishi, raqobatbardoshlikning oshirilishi, eksport salohiyatining yuksaltirilishi, innovatsion va energiya tejamon texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish hamda jahon bozorida talab yuqori bo'lgan yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish jarayonlarida bank tizimi tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat muhim rol o'ynamoqda. Ushbu jarayonlar mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilayotgani ma'lumotlarida o'z aksini topgan (2-jadval).

2-jadval. Kreditlar turlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i (mlrd so'm)

Ko'rsatkich nomi	01-02-2024	01-02-2025	O'zgarishi, %
Jami kredit qoldig'i	469 600	533 989	14
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	149 894	179 852	20
└ Ipoteka kreditlari	58 737	68 750	17
└ Mikroqarzlar	25 155	43 986	75
└ Iste'mol kreditlari	45 039	40 284	-11
└ Ta'lim kreditlari	4 763	5 882	23
└ Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	15 985	19 457	22
└ Boshqa kreditlar	216	1 492	590
Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	319 706	354 137	11
└ Kredit tashkiloti bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	305 781	328 803	8
└ Lizing va faktoring	2 068	2 640	28
└ Banklararo kreditlar	925	694	-25
└ Mikroreditlar	5 429	17 194	217
└ Sinditsiyalashtirilgan kreditlar	5 502	4 806	-13

Xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash hamda zamonaviy texnologiyalar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadlariga tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar ajratildi (1-rasm) [8].



1-rasm. O'zbekistonda investitsion kreditlar taqsimoti (2024) (cbu.uz, n.d.)

Xususan, 2024-yilda banklar tomonidan ajratilgan investitsion kreditlarning asosiy qismi qishloq xo'jaligi, yengil sanoat hamda to'qimachilik sohalariga yo'naltirildi.



Yuqorida keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ko'p milliard so'mlik investitsion kreditlar ajratilgan. Jumladan:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo'yicha davlat dasturlari doirasida qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, farmatsevtika, to'qimachilik hamda qurilish materiallari sanoati tarmoqlariga investitsion kreditlar berilmoqda;
- tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yoshlar – kelajagimiz" va "Har bir oila – tadbirkor" dasturlari orqali investitsion loyihalarga moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda;
- xorijiy banklar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda xalqaro investitsion kredit liniyalari ochilib, ular orqali ilg'or texnologiyalarni jalb etish imkoniyati kengaytirilmoqda.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, xususan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashtirish ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilishi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tijorat banklarining jami aktivlari, kapitali va depozitlari hajmining yuqoriligi investitsion loyihalarni moliyalashtirish nuqta nazaridan ijobiy omil hisoblanadi (3-jadval) [8].

3-jadval. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit resurslarini jalb qilishning maqsadli ko'rsatkichlari (mln AQSh dollari)

T/r	Tijorat banklari nomi	Kredit liniyalari soni	Xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati	Shundan, 2024-yilda jalb qilish rejasi	I-chorak	II-chorak	III-chorak	IV-chorak
	Jami	70	3 067,5	2 332,2	278,1	550,2	759,3	744,6
1	«Agrobank» ATB	4	200,0	200,0	5,0	10,0	70,0	115,0
2	«Aloqabank» ATB	4	70,4	70,4	5,0	17,0	25,4	23,0
3	«Asakabank» AJ	7	467,0	365,0	50,0	100,0	150,0	65,0
4	ATB «Biznesni rivojlantirish banki»	9	85,0	85,0	8,5	12,8	25,5	38,3
5	«Invest finans bank» AJ	2	75,0	27,9	4,2	5,6	8,4	9,8
6	«Ipoteka-bank» ATB	4	342,0	200,0	25,0	60,0	35,0	80,0
7	«Mikrokreditbank» ATB	5	112,0	99,8	2,0	8,0	38,0	51,8
8	«O'zmilliybank» AJ	7	1 022,0	600,0	62,0	160,0	170,0	208,0
9	«O'zsanoatqurilishbank»	16	540,0	540,0	81,5	157,3	176,0	125,3
10	ATB «Xalq banki»	3	44,1	44,1	2,1	22,0	20,0	—

Banklarning kapitallashuv darajasining oshishida tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan xorijiy kredit resurslarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda investitsion kreditlar iqtisodiyotga quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Ish o'rinlarining yaratilishi — yangi zavod va korxonalar tashkil etilishi orqali minglab fuqarolar bandligi ta'minlanmoqda.

2. Texnologik yangilanish — xorijiy uskunalar xaridi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish natijasida mahsulotlar sifati oshmoqda.

3. Mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligi — import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi orqali tashqi iqtisodiy mustaqillik mustahkamlanmoqda.

4. Hududlar rivoji — chekka hududlarda kreditlar hisobidan kichik sanoat zonalari tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda investitsion kreditlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

— raqamli kreditlash tizimini joriy etish — kredit olish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida avtomatlashtirilgan va onlayn platformalar orqali kredit arizalarini ko'rib chiqish tizimlarini kengaytirish;

— foiz stavkalarini maqbullashtirish — real sektor imkoniyatlariga mos foiz stavkalarini belgilash orqali kreditlashni rag'batlantirish;

— garov tizimini isloh qilish — intellektual mulk, kelajakdagi daromadlar yoki sug'urta kafolatlarini garov sifatida qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

— moliyaviy savodxonlikni oshirish — tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari uchun investitsion loyihalarni samarali rejalashtirish bo'yicha o'quv-treninglar tashkil etish.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotlarini takomillashtirish borasida quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

a) tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etilayotgan kredit mahsulotlari va turlari bo'yicha shartlarni aholiga to'liq va tushunarli tarzda yetkazish;



b) jismoniy shaxslarga kredit ajratish amaliyotida sun'iy intellektga asoslangan baholash modellaridan foydalanishni kengaytirish;

c) 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Samarqand viloyatida tijorat banklarining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 488 mlrd so'm miqdoridagi muammoli kreditlari bartaraf etilib, 728 mlrd so'm yoki jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi 0,5 foiz bandga kamaygan. Shunga qaramay, muammoli kreditlar ulushi 2,8 foizni tashkil etmoqda. Umuman olganda, xorijiy banklarning O'zbekistondagi tijorat banklariga investitsiya kiritishida muammoli kreditlar ulushiga alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lib, ushbu ko'rsatkichning salbiy tomonga o'zgarishi investitsiyalar oqimi hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklarida muammoli kreditlarni undirish va ularning sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi amaliyotda muammoli kreditlarni undirish jarayonida tijorat banklari tomonidan Savdo-sanoat palatasi orqali sudga da'vo arizalari kiritilib, sud qaroridan so'ng ijro hujjatlari Majburiy ijro byurolariga yuboriladi hamda garov mulklari "E-auksion" savdolari orqali realizatsiya qilinadi. Biroq garov mulklarining sotilishi ko'p vaqt talab etishi muammoli kreditlarning bank balansida uzoq muddat saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur yo'nalishda muqobil va tezkor mexanizmlarni mamlakatimiz tijorat banklari hamda mikromoliya tashkilotlari faoliyatiga joriy etish kreditlar qaytishini jadallashtirish, muammoli kreditlar undiruvini kengroq qamrab olish hamda qaytgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga qayta yo'naltirish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi 33-sonli Qonuni. — 2006-yil. <https://lex.uz/docs/-1004687>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. — Toshkent: "O'zbekiston", 2022-yil. https://lex.uz/docs/-5841063?utm_source=chatgpt.com
3. Mamadiyarov Z. T. Raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishning metodologik asoslari: dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2022-yil. — 78 b.
4. Kazakov O. S., Kamoliddinov I. M. Some questions of increase of efficiency in activity of enterprise subjects // Journal of Central Asian Social Studies. — 2021. — Vol. 2, No. 01. — P. 160–169. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a24>
5. Kazakov O. S., Kamoliddinov I. Questions of the effective utilization of industrial resources in enterprise activity in the conditions of economic globalization // The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. — 2021. — Vol. 3, No. 04. — P. 114–119. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue04-18>
6. Gadoyev S. J. Kredit mexanizmining elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash yo'llari. — Elektron manba: <https://www.herald.kokanduni.uz>
7. O'tbosarov A. A. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida chakana kreditlar ajratilish jarayonini baholash masalalari // Ekonomika i sotsium. — 2025-yil. — № 4(131)-2.
8. Sharipov I., Qurbonov R. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2025-yil, aprel.
9. Xalilayev J. K. Tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish // Science and Education Scientific Journal. — 2025-yil, aprel.
10. Finansovo-kreditnyy slovar'. — T. 1. — Moskva: "Finansy i statistika", 2004-yil. — 470 b.
11. Lex.uz — O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti — <https://www.cbu.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>